



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 496 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан.....	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjievna Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях.....	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market.....	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market.....	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari.....	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari.....	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран.....	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari.....	443
Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг.....	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili	454
Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli	
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish.....	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region.....	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Oliy taʼlim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari.....	485
Salimov Akmal Alimjonovich	
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari.....	490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich	



UDK 332.1

MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI

Shadiyev Alisher Xudoynazarovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0001-7159-1328>

alishershax3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqalarni tashkiliy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Finlyandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, AQSh hamda Janubiy Koreya singari ilg'or mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilingan. Xorij tajribalariga asoslanib, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy-bozor modeli, korporativ model, moliyaviy tizim, ijtimoiy siyosat soliq tizimi, mehnat bozori, strategik dasturlashtirish.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the experience of advanced countries such as Finland, Sweden, Great Britain, Germany, Switzerland, Japan, France, Canada, the USA and South Korea in the organizational economic development of regions. Based on foreign experience, conceptual approaches to improving the system of planning and management of socio-economic policy of Uzbekistan are developed.

Key words: economic security, socio-economic systems, social-market model, corporate model, financial system, social policy tax system, labor market, strategic programming.

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ опыта передовых стран, таких как Финляндия, Швеция, Великобритания, Германия, Швейцария, Япония, Франция, Канада, США и Южная Корея, в организационном экономическом развитии регионов. На основе зарубежного опыта разработаны концептуальные подходы к совершенствованию системы планирования и управления социально-экономической политикой Узбекистана.

Ключевые слова: экономическая безопасность, социально-экономические системы, социально-рыночная модель, корпоративная модель, финансовая система, социальная политика, налоговая система, рынок труда, стратегическое программирование.

KIRISH

So'nggi o'ttiz yil davomida globallashuv jarayoni iqtisodiy sohalarda katta o'zgarishlarga olib keldi. 1980-yillardan boshlab, xalqaro savdo hajmining va mamlakatlar o'rtasida kapital harakati erkinligining misli ko'rilmagan darajada kengayishi ilgari mavjud bo'lgan muvozanatni tubdan o'zgartirib yuborib, ushbu muvozanat davlatlarning xalqaro oqimlarni tartibga solish, yo'naltirish va cheklashdagi kuchli roli asosida shakllangan edi [1].

Iqtisodiyoti barqaror rivojlangan yoki iqtisodiy inqirozlardan muvaffaqiyatli chiqqan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda dasturga yo'naltirilgan yondashuv nafaqat ishlab chiqarish va miqdoriy ko'rsatkichlarga, balki ijtimoiy va sifat ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratadi. Mazkur yondashuv hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun samarali bo'lgan individual loyihalarni amalga oshirish bilan bir vaqtda olib boriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy dasturlashtirishning aniq vazifalarni bajarish mobaynida jamoatchilikni jalb qilgan holda amalga oshirilishi davlat boshqaruvi samaradorligining xalqaro standartlarga moslashishiga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

K.Klement, M.Xansen hamda K.Bredli [8] o'z tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqining shimoliy mamlakatlari – Daniya, Shvetsiya va Norvegiya tajribasi misolida mintaqaviy barqaror rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganishgan.



D.Karimov [4] “Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari” nomli tadqiqot ishida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi hamda uning raqobatbardoshligini ta’minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanish, hududlar iqtisodiyotining rivojlanish ko’rsatkichlarini shakllantirishda reyting baholash tizimining ahamiyati hamd afzalliklari, mamlakatimizda hududlar rivojlanish darajalarini qiyosiy va kompleks tahlil qilish asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanish natijalarini bayon etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada nazariy tadqiqotlar asosida rivojlangan davlatlardagi bozor iqtisodiyoti modellari o’rganilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari, jumladan 1. Markazlashgan (top-down) model 2. Pastdan yuqoriga (bottom-up) model 3. Klaster modeli 4. Barqaror rivojlanish modeli 5. Hududiy innovatsion tizim modeli 6. Inklyuziv rivojlanish modeli 7. Mintaqaviy ixtisoslashuv modeli hamda 8. Raqamli hudud modellari qiyosiy tahlil qilingan. Hozirgi iqtisodiy islohotlar bosqichida O’zbekistonning davlat rejalashtirish tizimi bozor mexanizmlari bilan muvofiqlashtirilgan strategik rejalashtirishga asoslanishi lozimligi soslab berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu o’rinda ijtimoiy-iqtisodiy tizim tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq bo’lib, ijtimoiy-iqtisodiy tizim – bu moddiy va nomoddiy resurslarning taqsimlanishi, mahsulot, xizmatlar ishlab chiqarilishi, taqsimoti, ayirboshlanishi hamda iste’mol qilinishi bilan bog’liq ijtimoiy hamda iqtisodiy institutlar (subyektlar) hamda munosabatlarning o’zaro bog’langan va o’zaro ta’sir qiluvchi yaxlit majmuasidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim, boshqa har qanday tizim singari tizimli sifatlar bilan ajralib turadi. Ular orasida barcha boshqa munosabatlarning kelib chiqishini birlashtirib turuvchi asosiy iqtisodiy munosabat muhim o’rin tutadi. Aynan shu munosabat asosida tobora murakkablashib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllanib, ushbu asosiy munosabat mavjud sharoitlarda resurslarni taqsimlash va nisbatlarni saqlab turishning eng sodd shakli sanalib, butun tizimning negizini tashkil qiladi [9].

Rivojlangan davlatlar orasida quyidagi bozor iqtisodiyoti modellari ajratiladi:

- Ijtimoiy-bozor modeli (Germaniya, Fransiya);
- Sotsial-demokratik model (Shvetsiya);
- Neoliberal model (AQSh, Angliya);
- Korporativ model (Yaponiya);
- Janubiy Yevropa rivojlanish modeli (Italiya, Gretsiya, Portugaliya).

Shulardan, neoliberal ijtimoiy-iqtisodiy modelning asosiy xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo’lsa. Neoliberal model – iqtisodiy erkinlikni, xususiy mulkni va cheklangan davlat aralashuvini asosiy tamoyil sifatida qabul qilgan bozor iqtisodiyoti modeli bo’lib, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion faollik va global raqobatbardoshlikka erishishni maqsad qiladi.

AQSH va Kanadada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tajribasi strategik dasturlashtirish tamoyillarini joriy etish maqsadga muvofiq va zarur ekanligini ko’rsatadi. Shuningdek, strategik ijtimoiy-iqtisodiy dasturlashtirish tizimi hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda strategik maqsadlar, taktik vazifalar, omillar va tashkiliy vositalarni o’z ichiga olib, strategik dasturlashtirish hududiy muammolarni hamda istiqboldagi vazifalarlar va maqsadlarni qamrab oladi [2].

Ijtimoiy jihatlariga to’xtalib o’tadigan bo’lsak birinchidan, strategik dasturlashtirish kompleks va tizimli yondashuvni ta’minlaydi ya’ni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichlarini jumladan, strategik maqsadlardan tortib, taktik vazifalar va ularni amalga oshirish vositalarigacha bo’lgan jarayonlarni qamrab oladi. Buning vositasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda turli yo’nalishlarni uzviy bog’laydi hamda sektoral nomuvofiqliklarni bartaraf etadi.


Ikkinchidan, uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi, ya’ni, strategik rejalashtirish hududiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarni belgilaydi. Natijada, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda qisqa muddatli chora-tadbirlar emas, balki barqaror strategiyalar asosida harakat qilinadi.

Uchinchidan, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlanib, strategik dasturlashtirish asosida amalga oshiriladigan harakatlar moliyaviy, mehnat, tabiiy resurslarni samarali taqsimlash va maqsadli yo’naltirish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiy xavfsizlik uchun zarur bo’lgan resurs bazasini tejash va mustahkamlashga yordam beradi.

To’rtinchidan, ijtimoiy omillarni inobatga oladi, biroq, iqtisodiy ko’rsatkichlarga emas, balki ijtimoiy sifat ko’rsatkichlariga ham e’tibor berilishi aholining turmush darajasi, bandlik, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimlarining rivojlanishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatga erishilishini ta’minlaydi.



Beshinchidan, hududiy muammolarni joyida hal qilish imkonini berib, har bir hudud uchun alohida strategik dasturlar ishlab chiqilishi mahalliy xususiyatlarni hisobga olib, samaradorlikni oshiradi va mazkur jihat markazlashmagan boshqaruv prinsiplariga to'laqonli mos keladi.



1-rasm. Strategik dasturlashtirishning salbiy jihatlari¹

Strategik dasturlashtirishning salbiy jihatlari e'tibor qaratadigan bo'lsak (1-rasm), ko'p bosqichli hujjatlarni ishlab chiqishni, muvofiqlashtirishni va monitoringni talab etib, byurokratik tartiblarning ko'payishiga va qaror qabul qilish jarayonlari sekinlashishiga sabab bo'ladi. Uzoq muddatli strategik rejalarda belgilangan maqsadlar ko'p hollarda keskin o'zgaruvchan bozor yoki siyosiy sharoitlarga moslasha olmaydi, natijada, strategiyalar real voqelikdan farq qilishi mumkin. Boshqa tomondan, strategik dasturlarni amalga oshirish ko'pincha katta miqdordagi moliyaviy resurslar va inson kapitalini talab qilib, cheklangan resurslarga ega bo'lgan hududlarda ushbu strategiyalar deyarli qog'ozda qolib ketish xavfi kuzatilishi mumkin. Shuningdek, resurslar taqsimoti yoki asosiy urg'u ko'proq iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarga qaratilsa, kam rivojlangan hududlar e'tibordan chetda qolib, mamlakat ichida ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik kuchayishi mumkin. Strategik dasturlarni amalga oshirishda kuchli institutlar, qat'iy mas'uliyat va nazorat mexanizmlari talab qilinib, agarda tizimlar zaif bo'lsa, strategiyalar samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

Hudud iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash doirasida dasturga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish afzalligi, ayniqsa, bozor mexanizmi va tizimli iqtisodiy inqiroz sharoitlarida yaqqol seziladi. Hududiy muammolar, jumladan, hududlar iqtisodiy xavfsizligini hal etishga yo'naltirilgan dasturiy-maqсадli yondashuvlarni hududiy siyosatning vositasi sifatida baholash lozim. Ushbu yondashuv siyosatning umumiy shakllanishi bilan bir qatorda, turli darajadagi va maqsadlardagi aniq dasturlar shaklida amalga oshirilishini ham ta'minlab beradi [6].

Rivojlanayotgan mamlakatlar nuqtai nazaridan qaralganda, iqtisodiy rivojlanishning mahalliylik sifatida xususiyati va ijtimoiy-institutsional omillarning ahamiyati yanada muhimroq bo'lib ko'rinadi, chunki qulay mintaqalar va sharoitlarning mavjud bo'lishi mazkur davlatlar uchun ancha past ehtimolga ega bo'ladi. Buni so'nggi o'n yilliklarda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilgan hududlararo tengsizliklarning yaqqol namoyon bo'lishi tasdiqlaydi. Ya'ni, ayrim hududlarda o'sish sur'atlarining favqulodda tezligi ayni mamlakatning qolgan hududlariga nisbatan solishtiganda ancha farqli bo'ladi [1].

Bundan tashqari, globallashtirish bu tendensiyalarni yanada kuchaytirib, aglomeratsiya, innovatsiya va o'sishning mahalliylik sifatida jarayonlariga katta turtki beradi. Masalan, Xitoyning jahon savdosi va xalqaro kapital oqimlaridagi ishtiroki ichki daromad darajasidagi tafovutlarning ortishiga sezilarli darajada ta'sir qilgani keng miqyosda tan olingan hamda mazkur farqlar asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan ichki hududlar bilan kuchli urbanizatsiyalashgan qirg'oqbo'yi viloyatlar o'rtasida yuzaga kelgan [3].

Hududiy daromadlardagi tafovutlar Hindiston misolida ham kuzatilayotgan bo'lib, boyroq shtatlar yuqori

1 Muallif ishlanmasi



iqtisodiy o'sish sur'atlarini qayd etib, milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuksaltirib bormoqda [5].

Hududiy siyosat va tarmoqlar bo'yicha yuritiladigan siyosat o'rtasidagi chegaralar turli mamlakatlarda turlicha qo'llanilib, bir qator davlatlarda, masalan, Finlyandiya, Shvetsiya, Belgiya, Lyuksemburg va Buyuk Britaniyada hududiy iqtisodiy siyosatning an'anaviy elementi bo'lgan infratuzilmani shakllantirish (transport, aloqa, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish) rasmiy ravishda hududiy siyosat doirasiga kiritilmaydi va asosan umumdavlat siyosati darajasida qabul qilinadi. Agar davlatlar o'rtasidagi bu singari mavjud farqlar inobatga olinmasa, u yoki bu mamlakatda hududiy iqtisodiy siyosatning mavjudligi va ko'lami borasida noto'g'ri xulosalar chiqarilishiga olib kelishi mumkin [7].

Mintaqalarni tashkiliy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Finlyandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsariya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, AQSh hamda Janubiy Koreya singari ilg'or mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qildik (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Mintaqalarni tashkiliy iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or davlatlarning tajribalari qiyosiy tahlili²

Davlatlar	Rivojlanish yondashuvlari	Asosiy rivojlanish elementlari	Davlat siyosati
Finlyandiya	Innovatsiya tizimlari va hududiy klasterlar orqali iqtisodiy o'sish; ilmiy tadqiqotlar va ta'limga asoslangan rivojlanish.	Innovatsiyalar, texnologiya transferi, hududiy klasterlar, ilmiy tadqiqotlar.	Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun davlatning ilm-fan va ta'limga sarmoya kiritishi.
Shvetsiya	Mahalliy va global bozorlar o'rtasida integratsiya; davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.	Texnologiyalarni rivojlantirish, shahar va hududiy integratsiya, biznes inkubatsiya.	Xalqaro hamkorlik va innovatsion rivojlanish uchun qulay biznes muhitini yaratish.
Buyuk Britaniya	Hududiy iqtisodiy rivojlanish va shahar strategik rivojlanishi bo'yicha yagona siyosat, hududiy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash.	Transport infratuzilmasi, shaharlar rivojlanishini rejalashtirish, hududiy iqtisodiyotni kuchaytirish.	Shaharlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, hududlararo tenglikni ta'minlash uchun davlat dasturlarini ishlab chiqish.
Germaniya	Hukumat va xususiy sektor o'rtasida kuchli hamkorlik o'rnatish va sanoatni rivojlantirishdagi innovatsion strategiyalar.	Sanoat, texnologiyalarni innovatsion rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar.	Innovatsion sohalarda qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy sektorni rivojlantirish uchun davlat rag'batlantirishlari.
Shvetsariya	Hududiy ijtimoiy va iqtisodiy kooperatsiyani rag'batlantirish; iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish.	Ochiq iqtisodiyot, texnologik innovatsiyalar, ilm-fan va biznes integratsiyasi.	Hududiy rivojlanish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, kooperatsion tizimlarni mustahkamlash.
Yaponiya	Mahalliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda sanoatni diversifikatsiyalash, texnologiyalarga asoslangan strategiyalar ishlab chiqish.	Innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, ta'lim va tadqiqotlar.	Mahalliy iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun siyosiy vositalar ishlab chiqish.
Fransiya	Hududiy va tarmoqlar siyosatini uyg'unlashtirish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish.	Sanoat, texnologiyalarni rivojlantirish, hududiy o'zgarishlar va innovatsion infratuzilma.	Sanoatni diversifikatsiya qilish, texnologik rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qonunchilik bazasini yaratish.
Kanada	Mahalliy va milliy rivojlanishni integratsiya qilish, tarmoq va sektorlararo bog'liqlikni mustahkamlash.	Texnologiyalar, ta'lim, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ilg'or sanoat texnologiyalarini joriy etish.	Innovatsion tizimlar va barqaror rivojlanish uchun integratsion siyosat yuritish.
AQSh	Hududiy siyosatni muvofiqlashtirish va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini amalga oshirish; yangi texnologiyalarni rivojlantirish.	Innovatsiya, sanoat klasterlari, shahar va hududiy iqtisodiyot.	Innovatsiyalarni rag'batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish, texnologik transformatsion yondashuvlar.
Janubiy Koreya	Raqobatbardosh sanoatni rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish; texnologiyalar va ilmiy izlanishlarga yo'naltirilgan strategiyalar.	Yangi texnologiyalar, innovatsiyalar, shahar iqtisodiyoti, yuqori texnologik sohalari.	Raqobatbardoshlikni oshirish, yuqori texnologik sohalarni rivojlantirish va infratuzilmani yangilash.



Finlyandiya ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarga sarmoya kiritishda yetakchi mamlakatlardan biri sanalib, mamlakatda kuchli innovatsion tizim va hududiy klasterlar rivojlanishning asosiy omillaridan hisoblanadi. E'tiborlisi, hududiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish uchun ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar tizimi asosiy rol o'ynaydi. Biroq, G'arbiy Yevropadagi boshqa mamlakatlar bilan solishtirilganda, Finlyandiyaning iqtisodiy rivojlanishi hududlararo tafovutlarga ega bo'lishi, ayrim hududlar infratuzilma va innovatsiyalarni joriy etishda yetarli darajada muvaffaqiyatga erishmaganligi ko'zga tashlanadi.

Shvetsiya mahalliy va global bozorlar o'rtasida muvaffaqiyatli tarzda integratsiyalashgan va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlagan mamlakatlar sirasidan bo'lib, mamlakat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida innovatsion siyosatga e'tibor qaratadi va yangi texnologiyalarga yirik miqdorda sarmoyalar yo'naltiradi.

Buyuk Britaniyada shahar va hududiy iqtisodiy rivojlanish uchun yagona siyosat yuritish ustuvor bo'lib, bu jihat umumiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Buyuk Britaniyaning kuchli transport tizimi va infratuzilmasi iqtisodiy o'sishning asosi sifatida qaraladi. Mamlakatda, ayniqsa, shimoliy va janubiy hududlar o'rtasida iqtisodiy farqlar mavjudligi iqtisodiy tengsizlik mavjudligidan darak beradi.

Germaniya sanoatni rivojlantirishda va texnologiyalarga sarmoya kiritishda yetakchi mamlakatlardan biridir. Sanoat va innovatsion tizimlarining muvaffaqiyatli integratsiyasi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlaydi. B. Britaniyaga o'xshash ravishda Germaniyaning sharqiy va g'arbiy hududlari o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy farqlar mavjud bo'lib, mazkur holat rivojlanishning barqarorligiga ta'sir o'tkazishi mumkinligini istisno etib bo'lmaydi.

Shveysariyada ochiq iqtisodiyot yondashuvi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynasa, Yaponiya sanoatni diversifikatsiya qilish, yuqori texnologik sanoat va ilmiy tadqiqotlar sohasida kuchli an'analar mavjudligi orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlab kelmoqda. Fransiya esa hududiy rivojlanish va tarmoqlar siyosatini uyg'unlashtirgan bo'lib, texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratadi.

Yaponiya iqtisodiy o'sishi 1940-yillardan so'ng misli ko'rilmagan darajada sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, yirik ichki bozorni shakllantirish va faol eksport savdo siyosatini yuritishga asoslangan edi. Yaponiya iqtisodiyoti yuqori darajada diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish asnosida shakllangan bo'lib, u dunyodagi eng yirik avtomobil, po'lat va yuqori texnologiyali mahsulotlar (xususan, elektronika mahsulotlari) ishlab chiqaruvchilardan biridir. Xizmat ko'rsatish sohasi hozirda yalpi ichki mahsulot (YalM) va bandlik miqdori bo'yicha iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida Finlyandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, AQSh, Janubiy Koreya hamda Xitoy tajribalariga asoslanib, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini rejalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi konseptual yondashuvlarni ilgari suramiz:

Iqtisodiy o'sish faqat YalMning hajmi bilan emas, balki quyidagi sifat ko'rsatkichlari bilan baholanishi lozim: 1) aholi farovonligi darajasi; 2) raqamli savodxonlik; 3) bandlik tizimi; 4) sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarining mavjud qamrovi va sifati; 5) yoshlar va ayollarga yaratib berilgan imkoniyatlar kengligi.

Ijtimoiy barqarorlik va inklyuzivlik siyosatini kuchaytirish, davlat siyosatini ijtimoiy guruhlarning teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlovchi mexanizmlarga asoslanishini rejalashtirish, bunda ijtimoiy himoya tizimining maqsadli va samarali faoliyati, oila siyosati va ko'p bolali oilalarni alohida qo'llab-quvvatlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi kishilarni integratsiyalashgan tizimlar vositasida qo'llab-quvvatlash.

Davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror hamkorlikni chuqurlashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmalarni rivojlantirish, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion va texnologik korxonalarini rivojlantirishga xususiy kapitalni kengroq jalb etish lozim.

Raqamli boshqaruv va tezkor moslashuvchan tizimni joriy etish, yangi iqtisodiy sharoitlarga tezkor reaksiya bera oladigan raqamli prognozlash va monitoring tizimini ishlab chiqish, "smart governance" (aqilli hukumat) prinsiplarini boshqaruv sohasiga tatbiq etish.

Mahalliy tashabbus va jamoatchilik nazoratini kengaytirish, samarali rejalashtirishni yo'lga qo'yish maqsadlarida jamoatchilik kengashlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar (NNT) va mahalliy aholi fikrini hisobga olish tizimini yo'lga qo'yish, davlat dasturlarini ochiqlik asosida baholash va monitoring qilish, mahalla instituti asosida "pastdan-yuqoriga" mexanizmini yanada kuchaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ascani A., Crescenzi R., Iammarino S. Regional economic development //A Review, SEARCH WP01/03. – 2012. – С. 2-26.
2. Danylyshyn B., Onyshchenko S., Maslii O. Socio-economic security: modern approach to ensuring the socio-economic development of the region //Економіка і регіон/Economics and region. – 2019. – №. 4 (75). – С. 6-13.
3. Fleisher B. and Chen J., 1997. The coast-noncoast income gap, productivity, and regional economic policy in China. Journal of Comparative Economics 25, 220-236
4. Karimov D.M. Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Karimov_D_pdf
5. Milanovic B., 2005. Half a world: Regional inequality in five great federations. Journal of the Asia Pacific Economy 10, 408-445.
6. Tsitsak L. M. Stratehiia yak tsentralnyi element stratehichnoho menedzhmentu (Strategy as a central element of strategic management) / R. I. Zavadiak, V. V. Popovych, L. M. Tsitsak, Yu. O. Didovych, O. A. Fedorovych // Naukovyi visnyk Uzhhorodskoho universytetu (Uzhgorod University Scientific Bulletin. Economy). – 2010. – Vol. 31. – pp. 154 – 158.
7. Зуева С. В. Зарубежный опыт социально экономического развития территорий //Вестник НГИЭИ. – 2012. – №. 1. – С. 51-59.
8. Клемент К., Хансен М., Брэдли К. Устойчивое региональное развитие: Изучение опыта Северных стран. <https://www.diva-portal.org/smash/get/diva2:700461/FULLTEXT01.pdf>.
9. https://www.amia.by/book/umk/Kaf_econom_bezopast/sovremen_polit/project



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>